

## MAHALLIY BUDJETLARNI MOLIYAVIY MABLAG'LAR BILAN TA'MINLASHDA TARTIBGA SOLUVCHI SOLIQLARNING O'RNI

Turopova Nigora Xolmurod qizi  
Termiz Davlat Universiteti erkin tadqiqodchisi

**Annotatsiya:** Agar, mazmunan olib qarasak, biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlardan mahalliy budgetlarni moliyaviy boshqaruvdan asosiy maqsad bu mahalliy budgetlarning moliyaviy braqarorligini ta'minlashga qaratilgandir. Mahalliy budgetlar barqarorligi ulardan qilinishi rejelashtirilgan xarajatlarni moliyalashtirish uchun yetarli mablag'lar bo'lishini taqozo etadi. Shu maqsadda ham tartibga soluvchi soliqlar orqali bu barqarorlikni ta'minlash uchun moliyaviy munosabatlar yuzaga keladi, aniqroq qilib aytganda bu davlatning maxsus moliyaviy siyosati orqali ta'minlanadi.

**Kalit so'zlar:** Mahalliy budget, moliyaviy mablag'lar, biriktirilgan soliqlar, statistika, natija, tartibga soluvchi, davlat, mahalliy, moliya

Dunyoda moliya tizimining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan mahalliy moliya(budgetlar)<sup>1</sup>ni shakllantirish, ularning mablag'laridan samarali foydalanishni ta'minlash masalalariga doimiy ravishda juda katta e'tibor berib kelinmoqda. Zero, hayotga tadbiq etilayotgan davlat siyosatining muvaffaqiyati va aksincha, uning muvaffaqiyatsizligi hamda shularga mos ravishda hukumatning taqdiri, ko'p jihatdan, ana shunga bevosita bog'liq.

Yuqorida ko'rib o'tdikki mahalliy budgetlarning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini ularga biriktirilgan soliqlar yetarlicha ta'minlab bera olmaydi, ayniqsa tadqiqot ob'ektimiz bo'lgan Surxondaryo viloyatida bu ko'rsatkich 50 foizga ham bormaydi. Dunyo amaliyotida mahalliy budgetlarning moliyaviy mablag'larga bo'lgan talabini qondirishning bir necha usullaridan keng foydalaniladi. Birinchisi bu ularga biriktirilgan soliqlarning turini oshirish, soliq tushumlari ko'proq tushadigan soliqlarni mahalliy budgetlarga qoldirish orqali ularning moliyaviy mablag'larini ko'paytirish, ikkinchisi, mamlakatdagi budget-soliq siyosatidan kelib chiqib, biriktirilgan soliqlar va yig'imlarning stavkalarini har yili imkoniyatdan kelib chiqib oshirib borish va uning evaziga umum davlat soliqlari bo'yicha ayrim turlari bo'yicha soliq stavkalarini tushirish, soliq imtiyozlarini oshirish tufayli o'rtadagi muvozanatni tiklash, uchinchisi esa, har yiligi mavjud holatdan kelib chiqib, ayrim umum davlat soliq turlari bo'yicha mahalliy budgetlarga qoldiradigan qismi bo'yicha taqsimotlar normalarni belgilash, ayrim soliq turlari bo'yicha muayyan muddat mahalliy budgetlarga qoldirish, to'rtinchidan, mahalliy budgetlarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash uchun mahalliy hokimliklarning moliyaviy huquqlarini kengaytirish, vaziyatdan moliyaviy siyosatning umumiyo yo'nalishlaridan kelib chiqib ayrim mahalliy yig'imlarni joriy etishga ruxsat berish orqali yetarli mablag'larni jalg qilishi amaliyoti mumkin.

<sup>1</sup> "Maxalliy budget" tushunchasi xalqaro amaliyotda "munitsipalitetlar budgeti", "kantonlar budgeti", "provinsiyalar

O‘zbekiston Respublikasi Budjet kodeksining 52-moddasida respublikamizda mahalliy budgetlarining daromadlarini shakllantirish tartibi va ularning daromad manbaini ikki guruhga bo‘lgan. Unda birinchi guruh biriktirilgan manbalar tizimi bo‘lsa, ikkinchisi umum davlat soliqlaridan ma’lum normativlar asosida mahalliy budgetlar moliyaviy mablag‘lariga bo‘lgan ehtiyojni qondirish maqsadida ularga qoldiriladigan soliq turlari ro‘yxatini belgilab qo‘yilgan. Ya’ni, foyda solig‘i, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i, aksiz solig‘i, qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq tashqari aksiz solig‘i, QQS kabilar ma’lum bir normativlar bo‘yicha mahalliy budgetlar ixtiyorida qoldirilishi ko‘rsatilgan.

Bundan tashqari mahalliy budgetlarga biriktirilgan yig‘imlar sifatida yuridik va jismoniy shaxslardan hamda chet ellik yuridik, jismoniy shaxslardan kelib tushgan qaytarilmaslik xususiyatiga ega bo‘lgan moliyaviy mablag‘lar, avtotransport vositalarini sotib olganlik uchun yig‘im hamda O‘zbekiston Respublikasi hududiga vaqtinchalik olib kirganlik uchun maxsus yig‘imlar ham undirish belgilanganki, ular mahalliy budgetlarning biriktirilgan yig‘imlariga kiradi. Shuningdek, boshqa daromadlar deb nomlangan bir guruh moliyaviy manbalar ham borki, ular jumlasiga quyidagilarni keltirish mumkin: “Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgetiga, viloyatlar va Toshkent shahar mahalliy budgetlariga yo‘naltiriladigan davlat daromadiga o‘tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar, belgilangan normativlar bo‘yicha davlat aktivlarini joylashtirishdan, foydalanishga berishdan va sotishdan olingan daromadlar, davlat bojlari, yig‘imlar, tovon pullari va jarima sanksiyalari, egasiz mol-mulkni, meros huquqi bo‘yicha davlat ixtiyoriga o‘tgan mol-mulkni, huquq bo‘yicha davlat daromadiga o‘tkazilishi lozim bo‘lgan xazinalarni realizatsiya qilishdan tushgan tushumlar mahalliy davlat hokimiyati organlarining ulushi bo‘yicha dividendlar (daromadlar) va qonunchilikka muvofiq boshqa daromadlar kiradi<sup>2</sup>.

### 1.1-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi budgetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budgetlarining daromadlari<sup>3</sup> (mlrd so‘m)

Hududlar nomi		yillar				
		daromadlar				
		2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog‘iston Respublikasi		2 833,3	1 614,2	5 375,7	2 703,3	3 069,3
Andijon viloyati		2 187,4	2 352,2	6 608,2	3 802,7	4 087,3
Buxoro		2	1	4	3	4

<sup>2</sup> O‘zbekiston respublikasi Budget kodeksi 52-moddasi. <https://lex.uz/acts/2304138>.

<sup>3</sup> O‘zbekiston Moliya va iqtisodiyot vazirligi va Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari hamda har yilgi Davlat budgeti qonunida tegishli ilovalari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

	viloyati	142,3	935,4	463,1	817,2	232,4
	Jizzax viloyati	1 050,8	1 212,9	3 469,3	2 184,9	2 415,6
	Qashqadaryo viloyati	2 935,7	2 570,3	8 380,2	4 561,2	4 879,1
	Navoiy viloyati	1 353,6	1 535,8	2 993,6	2 993,6	2 904,1
	Namangan viloyati	2 016,5	1 970,6	6 613,3	3 713,4	3 564,7
	Samarqand viloyati	2 714,8	2 657,0	7 155,1	4 958,8	5 191,7
	Surxondaryo viloyati	1 741,6	1 754,7	6 291,2	3 042,3	3 104,5
0	Sirdaryo viloyati	751,1	745,7	2 492,3	1 406,1	1 502,1
1	Toshkent viloyati	2 582,9	3 009,8	5 866,2	5 866,2	5 668,0
2	Farg'ona viloyati	3 005,6	2 904,9	7 618,8	5 437,8	5 399,0
3	Xorazm viloyati	1 402,2	1 442,7	4 160,6	2 719,2	2 879,0
4	Toshkent shahri	3 556,1	4 068,6	7 739,3	7 739,3	9 163,3
	Jami	30 273,9	29 774,7	79 226,9	54 946,0	58 060,1

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasida tartibga soluvchi soliqlar orqali mahalliy budjetlarni moliyaviy mablag'larga bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlashda har yili mahalliy budjetlarning daromadlari va xarajatlarining prognozlaridan kelib chiqib aniqlanadi. Shu boisdan Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetining viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budgetlarining daromadlarining tahlilini amalga oshiradigan bo'lsak, yuqorida keltirilgan 2.10-jadvaldan ko'rish mumkinki, mahalliy budgetlar daromadlari 2020 yil 30 273,9 mlrd so'm bo'lgan bo'lsa, 2024 yilda uning hajmi qariyb 2 barobarga oshib 58 060,1 mlrd so'm bo'lgan. Daromadlar hajmida aytish kerakki, bu yerda ayrim trasfert to'lovlar masalan, tamaki, alkogol mahsulotlari, mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i transfertlari bu ko'rsatkichlarda inobatga olmagan.

1.2-jadval.

Qoraqalpog'iston Respublikasi budgetining, viloyatlar hamda Toshkent shahar mahalliy budgetlarining xarajatlari tahlili<sup>4</sup> (mlrd so'm)

Hududlar nomi		yillar				
		xarajatlар				
		2020	2021	2022	2023	2024
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2	833,3	915,6	874,2	375,7	147,3
Andijon viloyati	2	803,6	228,8	741,6	608,2	001,1
Buxoro viloyati	2	142,3	375,4	346,3	463,1	593,5
Jizzax viloyati	1	499,0	702,9	551,8	469,3	304,2
Qashqadaryo viloyati	3	693,8	147,6	534,3	380,2	806,2
Navoiy viloyati	1	353,6	535,8	186,3	993,6	086,6
Namangan viloyati	2	994,2	254,5	608,0	613,3	548,7
Samarqand viloyati	3	036,6	759,7	963,8	155,1	780,2
Surxondaryo viloyati	2	580,7	048,3	453,9	291,2	937,3
Sirdaryo viloyati	1	095,0	279,9	777,7	492,3	403,9
Toshkent viloyati	2	582,9	009,8	378,9	866,2	185,3
Farg'ona viloyati	3	357,5	815,0	619,9	618,8	342,6
Xorazm viloyati	1	859,2	075,6	067,2	160,6	082,8
Toshkent shahri	3	556,1	068,6	044,7	739,3	677,2
Jami	35	387,8	217,6	148,7	226,9	896,7

<sup>4</sup>

Ushbu keltirilgan 1.2-jadvaldan ko‘rish mumkinki, mahalliy budgetlar daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasida farqlar mavjud bo‘ladi. Bu xarajatlarda mahalliy budgetlar hisobidan so‘ndiriladigan davlat qarziga xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq xarajatlarni inobatga olingan. Agar, tahlil qiladigan bo‘lsak, mahalliy budgetlarning daromadlari bilan xarajatlari o‘rtasidagi farq 2020 yilda 5 trln so‘mga farq qilsa, 2024 yil bu ko‘rsatkich 2024 yilda bu farq (74 896,7-58 060,1) 16,8 trln so‘m bo‘lgan. Bunday farqlar budgetlararo transfertlar bilan tartibga solinadi.

### 1.3-jadval.

O‘zbekiston Respublikasining respublika budgetidan mahalliy budgetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdorlari tahlili<sup>5</sup>

	Hududlar nomi	Yillar				
		2020	2021	2022	2023	2024
	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	0	1 301,4	1 518,0	2 672,4	2 078,0
	Andijon viloyati	616, 2	876,7	1 682,3	2 805,5	1 913,8
	Buxoro viloyati	0	440, 0	442, 3	645, 9	361,1
	Jizzax viloyati	448, ,2	490, 0	824, 6	1 284,4	888, 6
	Qashqadaryo viloyati	758, ,1	1 577,3	2 051,3	3 819,0	927,1
	Navoiy viloyati	977, 7	1 284,0	1 704,8	2 899,9	182,5
	Namangan viloyati	321, 8	1 102,7	1 008,0	2 196,3	1 984,0
	Samarqand viloyati	839, ,1	1 293,6	1 987,0	3 248,9	1 588,5
	Surxondaryo viloyati	343, ,9	534, 3	673, 2	1 086,2	1 832,8
0	Sirdaryo viloyati	448, ,2	1 301,4	1 518,0	2 672,4	901,8
1	Toshkent viloyati	0	0	0	0	517,3
2	Farg‘ona viloyati	351, 9	910,1	1 377,4	2 181,0	1 943,6
3	Xorazm viloyati	457, ,0	632, 9	846, 6	1 441,4	1 203,8

<sup>5</sup> Ўзбекистон Молия ва иттифодиёт вазирлиги ва Давлат солиқ қўмитаси маълумотлари һамда har йилги Давлат бюджети қонунида тегишли иловалари асосида муаллиф томонидан тузилган.

4	Toshkent shahri	0	0	0	0	513,9
	Jami	5 113,9	10 443,0	14 115,6	24 280,9	16 836,6

Ushbu keltirilgan jadvalda O'zbekiston Respublikasining respublika budjetidan mahalliy budgetlarga ajratiladigan tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdorlari tahlili keltirilgan bo'lib, qayd etish joizki, 2024 yilda tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag'lar bo'yicha respublika bo'yicha 6 231,1 mlrd so'm ajratilgan. 2020 yilda tartibga soluvchi budgetlararo transfertlar miqdori 5113,9 mlrd so'm ajratilgan bo'lsa, mahalliy budgetlardan qilinadigan xarajatlar oshib borishi va inflatsion bosimlar hisobiga ajratiladigan budgetlararo transfertlar 2024 yilga kelib 3 barobardan ortiq miqdorda rejalashtirilgan va 16 836,6 mlrd so'm ajratilgan.

Qayd etish joizki, budgetlararo transfertlar bo'yicha so'rovlar o'zgarib turishi mumkin, agar, mahalliy hokimliklarning o'z tashabbusiga ko'ra qo'shimcha tadbirlar amalga oshirilsa, u holda ularni moliyalashtirish mahalliy budgetlarining qo'shimcha manbalari hisobidan amalga oshiriladi. Agar, mahalliy hokimliklarning faoliyatiga tegishli bo'limgan tadbirlarni amalga oshiradigan bo'lsa daromadlarning prognoz ko'rsatkichlari 5 foizdan ortiq miqdorga bajarilmagan taqdirda mahalliy hokimliklar budgetlararo transfertlar miqdorini oshirish yuzasidan so'rov qilishga haqli bo'ladi, shuningdek, ularning faoliyatiga bog'liq bo'limgan holda bajarilmay qolish ehtimoli yuzaga kelganda budget daromadlari turlarining prognoz ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan holda farq summa boshqa daromad manbalari yoki respublika budgeti hisobidan qoplanashi mumkin.

Ma'lumki, har yiligi davlat budgeti qonunida, masalan 2024 yilgi uchun bunday qonunda mahalliy budgetlar qilinadigan xarajatlar turi ko'rsatib o'tilgan bo'lib, ular quyidagilardir: "Soliq qo'mitasining hududiy organlarini saqlash xarajatlari, sud boshqaruvchilarining mehnatiga haq to'lash bilan bog'liq xarajatlar, viloyatlar va Toshkent shahri, tumanlar va shaharlardagi Xalq qabulxonalarini saqlash xarajatlari" mahalliy budgetlardan moliyalashtirilishi ko'rsatib o'tilgan, bunday xarajatlarning ortib borishi esa, budgetlararo transfertlar miqdoriga bo'lgan talabni ham oshiradi.

Shuningdek, mahalliy budgetlarning tartibga soluvchi soliqlar bo'yicha tushumlarni ko'paytirishning zarurligi ulardan doimiy qilinadigan xarajatlarning dinamik o'sib borishi ham ta'sir qiladi. Chunki, ular mahalliy budgetlardan doimiy qilinadigan xarajatlarni tavsiflaydiki, ularni moliyalashtirish mahalliy budgetlarning mablag'lari yetmaydi.

**Umumiyl** xulosa sifatida aytish mumkinki, mahalliy budgetlarning daromadalarini shakllantirishda tartibga soluvchi soliqlar hozircha asosiy daromad manbai sifatida rol o'ynamoqda, bulardan tashqari soliqsiz to'lovlar ham katta fiskal ahamiyatga egadir. Ayniqsa, ushbu holat Surxondaryo viloyatida tartibga soluvchi soliqlarning roli yanada yuqoridir. Bu esa, mahalliy budgetga biriktirilgan soliqlarning rolini oshirib borishni taqozo etadi, qachonki, biriktirilgan soliqlarning roli yuqori bo'lsa, mahalliy budgetlarning moliyaviy salohiyatining yuqoriligidan dalolat beradi. Demak, mahalliy budgetlarning

biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlarning rolini oshirish uchun ularda budgetlararo munosabatlarni to‘g‘ri yo‘lga qo‘yishni va mahalliy budgetlarning biriktirilgan soliqlarga ta’sir qiluvchi omillarni alohida tadqiq etishni taqozo etadi. Shuni ta’kidlash kerakki, dunyo amaliyotida gibrildi soliq tizimi aksariyat davlatlarda qo‘llaniladiki, bu hali biriktirilgan va tartibga soluvchi soliqlar tizimi ahamiyatli ekanligidan daloalat beradi. Bu gibrildi soliq tizimlari ham biriktirilgan, ham tartibga soluvchi elementlarni o‘z ichiga oladi, hukumatlar byudjetlarni muvozanatlash, muayyan xatti-harakatlarni rag‘batlantirish yoki asosiy tarmoqlarni moliyalashtirish uchun turli soliq vositalaridan foydalanishga imkon yaratadi. Bunday soliqlarning samaradorligi ularning belgilangan maqsadlarga erishish uchun qanchalik to‘g‘ri ishlab chiqilganligi va amalga oshirilishiga ham bog‘liq bo‘ladi, bugungi kunda mahalliy budgetlarni tartibga soluvchi soliqlar orqali tartiblash mexanizmlarini qaytadan isloh qilish kerak, buning uchun esa, har bir hududning moliyaviy salohiyati va moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj balansini o‘rta va uzoq muddatga ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz . – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qatiy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. –T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 104 b.
3. O‘zbekiston Respublikasining 2013-yil 26-dekabrdagi “Budget kodeksi”. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 27.07.2018-y., 03/18/488/1579-son.
4. O‘zbekiston Respublikasining 2018-yil 9-apreldagi “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 10.04.2018 y., 03/18/472/1050-son.
5. O‘zbekiston Respublikasining «Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida»gi Qonuni. 1993 yil 2 sentabr.
6. O‘zbekiston Respublikasining «2024 yil uchun Davlat budgeti to‘g‘risida»gi Qonuni. 2023 yil 20 dekabr.
7. Vahobov A., Qosimova G. Davlat moliyasini boshqarish. O‘quv qo‘llanma. – T.: Iqtisod-moliya, 2008. -287b.;
- 8 Vahobov A., Malikov T. Moliya. Darslik. – T.: Noshir, 2011. – 712 b.